

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING YOZMA NUTQINI O'STIRISHDA BO'G'IN, SO'Z, SO'Z BIRIKMASI VA GAPNING AHAMIYATI

Omonova Sarvinoz,

*Samarqand davlat pedagogika instituti
mustaqil tadqiqotchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida yozma savodxonlikni shakllantirish jarayonida bo'g'in, so'z va gap ustida ishlashning metodik va didaktik ahamiyati nazariy jihatdan tahlilga tortildi.

Kalit so'zlar: bo'g'in, so'z, so'z birikmasi, og'zaki va yozma nutq, alifbe, darslik.

Аннотация. В данной статье теоретически проанализировано методическое и дидактическое значение работы со слогами, словами и предложениями в процессе формирования письменной грамотности у учащихся начальных классов.

Ключевые слова: слог, слово, словосочетание, устная и письменная речь, алфавит, учебник.

Abstract. This article provides a theoretical analysis of the methodological and didactic significance of working on syllables, words, and sentences in the process of developing written literacy in primary school students.

Keywords: syllable, word, phrase, oral and written speech, alphabet, textbook.

Kirish. Ona tili ta'limining bosh maqsadi o'quvchilarda og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini hosil qilish, shuningdek, aniq va teran fikrlash, o'z fikrlarini ixcham, tushunarli, jo'yali bayon qilish malakasini tarkib toptirishdan iboratdir. O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishning dastlabki qadami ularning so'z zahirasini oshirishdan boshlanadi. Yetarli so'z zaxirasiga ega bo'lgan shaxsgina til birliklarini o'rinli qo'llab, fikrini to'g'ri ifodalay oladi.

Insonda ruh, tafakkur va til o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ijodiy va mustaqil fikrli, ma'naviy yetuk shaxsni tarbiyalashda ona tili va uning ta'lim usuli, shuningdek, vositalarining o'rni, roli beqiyosdir. Ona tili ta'limi bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirishga, erkin fikrlay olishi, o'zgalar fikrini anglashi, o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda bayon qila olishi, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o'rinda ona tili ta'limiga o'quv fani emas, balki butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ta'lim jarayoni sifatida qaraladi. Ona tili ta'limi standarti ko'rsatkichlari bolani fikrlay olish, ifodalagan fikrni anglash va o'z fikrini savodli, mantiqiy izchillikka rioya qilgan holda bayon eta olishga, o'rgatish nuqtai nazaridan belgilanadi.

Adabiyotlar tahlili. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasiga oid adabiyotlarda bo'g'in, so'z, so'z birikmasi va gap ustida ishlash o'quvchilarning savodxonligini shakllantirishning asosiy bosqichlari sifatida qaraladi. K. Qosimova, S. Matchonov va X. G'ulomova kabi olimlar bu birliklar nutqni rivojlantirish va fikrni to'g'ri ifodalashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydilar.

Tadqiqotlarda so'z ustida ishlash lug'at boyligini oshirishi, gap ustida ishlash esa mantiqiy fikrlash va nutq tuzish ko'nikmalarini rivojlantirishi qayd etiladi. Shuningdek,

metodik adabiyotlarda bu jarayonni bosqichma-bosqich va amaliy mashqlar asosida tashkil etish samarali ekanligi ko'rsatilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma nutqini rivojlantirishda bo'g'in, so'z, so'z birikmasi va gap ustida ishlashning samaradorligini o'rganish maqsad qilingan. Tadqiqot jarayonida nazariy va amaliy yondashuvlar uyg'un holda qo'llanildi. Tadqiqotning nazariy asosini ona tili o'qitish metodikasiga oid ilmiy adabiyotlar, davlat ta'lim standartlari hamda pedagog-olimlarning ishlari tashkil etdi. Amaliy qismda esa boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan dars jarayonlari kuzatildi va mashg'ulotlar tashkil etildi. Metod sifatida tahlil, sintez, kuzatish, taqqoslash va pedagogik eksperiment usullaridan foydalanildi. Shuningdek, o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash uchun topshiriqlar, testlar va amaliy mashqlar qo'llanildi.

Tahlillar va natijalar. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida ta'limning yangi shakllarini qo'llash uni amaliyotda sinab ko'rish muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limi mazmunini yangilash, ta'lim usullarini takomillashtirish, o'qituvchilarni ana shunday usullar bilan qurollantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

“Ta'lim to'g'risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” oldiga ham katta ma'suliyatli vazifalar qo'yildi. Shunday dolzarb masalalardan biri ona tilini o'qitishdan asosiy maqsad uning qonunyatlarini o'rgatishdan iborat emas, balki, mustaqil fikrlaydigan ijodiy fikr mahsulini nutq shakliga mos ravishda og'zaki va yozma bayon qila olish ko'nikma va malakalarini egallashdan iborat deb belgilab qo'yildi. Haqiqatdan ham, umumiy o'rta ta'lim, jumladan, boshlang'ich ta'lim uchun chiqarilgan davlat ta'lim standarti (DTS) dasturiga yangi darsliklarda katta ahamiyat berildi. Jumladan, “Savod o'rgatish metodikasi”da ham boshlang'ich sinf o'quvchilarini dastlab gap va matn o'qitishga o'rgatishdan boshlaydi. Unda gapni qanday o'qitish va unga qanday erishish matnni qanday o'qish va ularning mazmunini qanday tushunish haqida ma'lumot beriladi. Bundan tashqari, “Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi “ (I-II qism) da ham matn ustida ishlash haqida metodik maslahatlar, usullar bayon qilingan. Unda boshlang'ich sinflarda har xil matnlar bilan tanishtirilganligi va ularni o'qishga o'rgatish usullari haqida metodik ma'lumotlar berilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan matn ustida ishlash tajribalari haqida “Boshlang'ich ta'lim” jurnalida ham har xil metodik maslahatlar berilib borilmoqda. Bu ayniqsa, DTS talablari darajasida o'qitish uchun uslubiy qo'llanma vazifasini o'taydi. Hatto, boshlang'ich sinf o'quvchilariga yangi pedagogik texnologiya talablarini, usullarini singdirishda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'qish – jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qabul qilinib, yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir. Bunda asosiy e'tibor, tushunishni namoyon qilishdan o'zlashtirilgan ma'lumotlarni qanday qilib loyihalar va vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilmoqda. Boshlang'ich sinf darslarida o'quvchini qalban yuksak, ma'naviy boy qilib

tarbiyalashda ajdodlarimiz yaratgan asarlardan foydalanilgan holda bilim berish hamda odob – axloq qoidalariga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega.

Ona tili va o‘qish fanini o‘qitishda asosiy e‘tibor o‘quvchida tilga doir to‘rt ko‘nikma: o‘qib tushunish, tinglab tushunish, nutq so‘zlash va yozish hamda Grammatik savodxonlikni shakllantirishga qaratiladi. Ta‘lim jarayonida o‘quvchilar voqea-hodisalarni kuzatish, anglash qiyoslash, analiz, sintez qilishga o‘rgatish orqali ijodiy va tanqidiy tafakkurni, fikrlash doirasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ona tili va o‘qish fani ushbu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. O‘qishga o‘rgatishda bo‘g‘in asos qilib olinadi. Buning uchun o‘qituvchida bo‘g‘in jadvali bo‘lishi lozim. Bo‘g‘in jadvali asosida o‘qish namunasi ko‘rsatiladi, ya‘ni harflab emas, ichida, birinchi harfni ko‘z bilan ko‘rib, uning nom ini dilda saqlab, ikkinchi harfni ko‘rish va ikkalasini bog‘lab, unlini mo‘ljallab ulab aytish tushuntiriladi. Bo‘g‘in o‘qish o‘qituvchining namunasi asosida doimiy ravishda har bir darsda izchil olib boriladi. Bunda quyidagi kabi chizmalardan foydalanish mumkin: “Alifbe” sahifalaridagi so‘zlarni oldin bo‘g‘inga bo‘lish, so‘ng o‘qishni mashq qilish yaxshi samara beradi. O‘qituvchining namunali o‘qishidan so‘ng birgalikda ovoz chiqarib o‘qish, yakka-yakka o‘qish, shivirlab o‘qishdan foydalaniladi. Ayniqsa, sekin o‘qiydigan o‘quvchilar bo‘lgan sinflarda xor bilan o‘qitish o‘qishni tezlashtirishga yordam beradi. Sinf o‘quvchilarining o‘qish ko‘nikmalaridan kelib chiqib, matndagi so‘zlarni xattaxtda bo‘g‘inlarga bo‘lib yozish, o‘rganilgan harflarni hisobga olgan holda qo‘shimcha so‘z birikmalari, gaplar tuzib yozish va o‘qitish usulidan ham foydalaniladi. Ma‘lumki, “Alifbe” sahifalarida bo‘g‘in tuzilishi murakkablashib boradi. Shuning uchun o‘qituvchi har bir bo‘g‘in tuzilishining murakkabligiga qarab ish usullarini belgilab olishi zarur. Masalan, uch tovushdan tuzilgan, to‘rt tovushdan tuzilgan bo‘g‘inlarni o‘qishga o‘rgatish ham o‘ziga xos qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bunda *o-lov*, *Man-non* tipidagi bo‘g‘inlarda *o-lo:v*, *Ma:n-no:n* tarzidagi qo‘shimcha chiziqdan, *bodring*, *to‘rt* tipidagi bo‘g‘inlarda *bo:d-ri:ng*, *to‘:r:t* [4.39-40] tarzidagi qo‘shimcha chiziqlardan foydalaniladi. So‘zlarni o‘qishga o‘rgatishda bo‘lib o‘qitishdan tashqari jadvallar ham yaxshi samara beradi. Umuman olganda, har bir o‘qish darsida, albatta, bo‘g‘in tuzilishi murakkab bo‘lgan so‘zlarni o‘qish mashqi o‘tkazilishi lozim. Bu usul o‘quvchilarda o‘qish malakasining takomillashuviga yordam beradi.

O‘qishga o‘rgatishda so‘zlarni va gaplarni to‘ldirib o‘qish ko‘nikmalarini hosil qilish o‘quvchini gap tuzishga, tez fikrlashga yo‘naltiradi. O‘quvchi tushirib qoldirilgan harf va so‘zni rasmga qarab topadi, uning gap mazmuniga mos yoki mos emasligiga e‘tibor beradi, o‘rtoqlariga nisbatan tez topib, o‘qituvchining rahmatiga sazovor bo‘lishga intiladi.

So‘z ustida ishlash. Bu yo‘nalishda quyidagicha ishlar omalga oshiriladi:

1. So‘zning to‘g‘ri, adabiy-orfoepik talaffuzi va o‘qilishini o‘rgatish.
2. So‘z ma‘nolarini tushuntirish.
3. O‘quvchilar nutqiga yangi so‘zlarni kiritib borish, ya‘ni lug‘atini boyitish.
4. So‘zlarni uslubiy jihatdan to‘g‘ri qo‘llashga o‘rgatish.

5. Berilgan soʻzni imlo jihatdan toʻgʻri yozishga oʻrgatish.

Bu jarayonda, mazmunli rasm asosida yoki predmetlarning oʻzi yordamida har bir aytilayotgan nom soʻz ekanligi tushuntiriladi, „soʻz“ tushunchasi shakllantiriladi. Bu oʻrinda gapning soʻzlardan tuzilishi aytib oʻtiladi. “Boʻgʻin” mavzusi oʻtilganda soʻzlarning boʻgʻinlarga boʻlinishini bilib oladilar.

Soʻz ustida ishlash jarayonida quyidagicha ogʻzaki mashq turlaridan foydalanish mumkin:

1. Bir xil qoʻshimchali soʻzlardan topish. Masalan: *ishla, tuzla, sozla; gulzor, mevazor, paxtazor* va boshq.

2. Ohangdosh soʻzlar topish. Misol: *bosh, tosh, qosh, osh; tutun, butun, kukun* va boshq.

3. Maʼnodosh soʻzlar topish. Bunda darslikdagi matndan maʼnodoshi bor soʻz tanlab olinadi va “Bu soʻzni boshqa qaysi soʻz bilan almashtirish mumkin?” deb soʻraladi. Masalan: *vatan, yurt, el, mamlakat, diyor* va boshq.

4. Shakldosh soʻzlar topish. Bunda 2 ta gap berilib ulardagi bir xil yozilgan soʻzni topish aytiladi. Soʻz topilgach, uning maʼnolari gaplar vositasida tushuntirib beriladi. Masalan: *Yozda dam oldik. Xatni qalam bilan yoz!* Oʻquvchilarga mana shunga oʻxshash misollar topish vazifasi beriladi.

5. Qarama-qarshi maʼnoli soʻzlar topish. Masalan: *yaxshi-yomon, baland-past, oq-qora, odobli-odobsiz, katta-kichik* va boshq.

6. Koʻp maʼnoli soʻzlar yordamida birikmalar tuzish: *odamning koʻzi, uzukning koʻzi, taxtaning koʻzi...* Bunda oʻqituvchi boshlab beradi va qator oʻquvchilar tom onidan davom ettiriladi.

7. Berilgan soʻzni qatnashtirib gap tuzish. Bunda berilgan soʻzni qatnashtirib gap yoki maqol aytish topshirigʻi berilishi mumkin. Misol: Kitob: *Kitob — bilim manbai*. Vatan: *Men vatanimni sevaman*.

Soʻz ustida ishlash jarayonida kesma harf va kesma boʻgʻinlar yordamida yozma maʼnolarni tashkil etiladi.

1. Oʻrganilayotgan sahifadagi bir boʻgʻinli soʻzlarni kesma harflardan tuzish va oʻqish: *nok, nay, osh, oy, ip, tom, doʻst, qand, baxt* va boshq.

2. Ustunchadagi ikki va uch boʻgʻinli soʻzlarni kesma harf va kesma boʻgʻinlardan tuzish va oʻqish. Misol: *t ~ to-mon, o-ta, mit-ti*.

3. Bir soʻz asosida bir necha soʻz tuzish va oʻqish: *oltin – olti, in, tin, til, il, it, tol*.

4. Berilgan soʻzning boʻgʻinlarini yoki ayrim harflarini almashtirib, yangi soʻz tuzish va oʻqish. Misol: *osmon – somon, Zilola – Hilola, qovoq – tovoq* va boshq.

5. Soʻz boʻgʻinlaridan yoki harflardan birini olib tashlab, yangi soʻz hosil qilish va uni oʻqish: *Noila – nola (yoki oila), guldun – don (yoki gul), ziyrak – zirak* va boshq.

6. Berilgan soʻzga *-chi, -la, -zor* qoʻshimchalarini qoʻshish va hosil boʻlgan yangi soʻzning

ma'nosini izohlash. Misol: ish – *ishchi, ishla*; gul – *gulchi, gulla, gulzor* va boshq.

7. So'zga harf, bo'g'in yoki tutuq belgisi qo'shib, yangi so'z hosil qilish va uni o'qish: *o't- o' tloq, bog'-bog'bon, bil-bilim, sher-she'r* va boshq.

8. Berilgan chizma asosida so'zlar tuzish va ularni o'qib, ma'nosini izohlash. Masalan: ш и - ш Bu chizma asosida *qush-cha, do'p-pi, ruch-ka* kabi so'zlar tuziladi.[5.52-54] O'yin tarzida olib boriladigan bu kabi ish turlari o'quvchilarning lug'atini boyitish bilan birga, o'qishga qiziqish uyg'otadi, imloviy sezgirlikni oshiradi va so'zning tovush tarkibi haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi. Gap ustida ishlash. Fikr almashish, aloqa-aralashuv gap vositasida amalga oshiriladi, shuning uchun ham gapni o'qishga, gap tuzishga, gap mazmunini aniqlashga, gapni to'g'ri yozishga oid amaliy bilimlar savod o'rgatish davridan boshlab shakllantiriladi. O'quvchilarda nutq, uning og'zaki va yozma shaklda bo'lishi, nutqning gaplardan hosil bo'lishi va gap haqida amaliy tushuncha darslikdagi mazmunli rasmlar asosida hosil qilinadi. Buning uchun o'qituvchi rasm yuzasidan 3-4 so'zli savollar tuzib keladi.

Masalan:

1. Rasmda nima tasvirlangan ?
2. Aziz dalada nima qilyapti?
3. Kimlar bog'da olma teryapti ?

O'quvchilar javobi gap nusxasi orqali xattaxtada quyidagicha tasvirlab beriladi:

O'quvchilar javobidan nima hosil bo'lgani (hikoya, og'zaki nutq) aniqlanadi. So'ng o'qituvchi xattaxtada hikoyaning nusxasi chizilganini aytadi. O'quvchilar nusxalarni kuzatadilar. O'qituvchi birinchi nusxa 1-berilgan savolning – gapning javob gapi ekanini aytadi. So'ngra o'quvchilarga nechta savol berilgan va nechta javob olinganini aniqlash topshirig'i beriladi. Ularga "*Chiziqning boshi nima uchun burchakli? Oxiriga nima qo'yilgan ?*" kabi savollar bilan murojaat qilinadi. Ular "3 ta savol – 3 ta gap berilgan edi, shuning uchun 3 ta javob – 3 ta gapning nusxasi chizilgan" deyishadi. O'quvchilarning javobini hisobga olgan holda gapning boshlanishi burchakli chiziq bilan ko'rsatilishi, oxiriga gapning tugaganligini bildiruvchi tinish belgisi – nuqta qo'yilgani tushuntiriladi. O'quvchilarning javobini tartiblashtirib va to'ldirib, quyidagicha xulosa chiqariladi:

Demak, nutqimiz gaplardan tuzilar ekan. Nutqda 2, 3, 4 ta va undan ham ko'p gap bo'ladi. Gapning boshlanishi burchakli chiziq bilan belgilanadi, gapning tugagan joyiga nuqta qo'yiladi. Navbatdagi darslarda gapning boshqa xususiyatlari o'tilayotgan mavzu va rasmlarga bog'liq holda o'rgatib boriladi. Umuman, xat-savod o'rgatish jarayonida o'qish va yozuv darslarida gap, gapning so'zlardan tuzilishi, gapda so'zlam ing alohida-alohida yozilishi, gapning oxiriga mazm uniga qarab nuqta, so'roq, undov belgisi qo'yilishi, gapning birinchi so'zi bosh harf bilan yozilishi haqida amaliy tushuncha beriladi.

Gap yuzasidan quyidagicha mashq turlaridan foydalanish mumkin:

1. O'qituvchi yoki o'quvchilardan biri aytgan gapni o'quvchilam ing xattaxtada chizma shaklida tasvirlashi va tushuntirishi (bunda gap rasm asosida tuziladi).

2. O'qituvchi tavsiya qilgan gap chizmasini o'quvchilarning izohlashi va unga mos gap tuzishi. Bunda o'qituvchi tuzadigan gap alifbe va yozuv daftaridagi rasmlar asosida bo'ladi.

3. Berilgan mazmunli rasm asosida tuzilgan hikoyadan o'rganilayotgan tovush-harf qatnashgan so'z bor gap ajratib olinib, uning chizmasi xattaxtada chizdiriladi. Shundan so'ng o'sha so'z bo'g'in tovush jihatdan tahlil qilinadi.

4. Rasm asosida tuzilgan hikoyadan istalgan gapning chizmasini xattaxtada ifodalash. Bunda o'quvchilarning gapni bir butun holda xotirasida saqlagani, gapga xos xususiyatlarni ongli o'zlashtirgani aniqlanadi. Bu jarayonda bir necha o'quvchiga bir nechta gap chizmasi chizdirilishi mumkin.

5. Hikoyadan berilgan chizmaga mos gapni ajratib olish va izohlab berish.

6. Hikoyadagi har bir gapning nusxasini chizdirish. Hikoya dastlab 2-3, so'ng 4-5 gapli bo'lishi zarur. Tuzilgan hikoyani o'qituvchi qayta aytib turadi, o'quvchilar bittadan uni xattaxtada ifodalaydi. Hikoyaning nusxasi shu tariqa xattaxtada o'z ifodasini topadi.

Misol:

Mana katta dala.

Bolalar bodring terdilar. Dehqon ularga rahmat aytdi.

7. Kartochkalar bilan ishlash. Bunda bir necha o'quvchilarga quyidagicha shakllar chizilgan kartochkalar tarqatiladi. So'ngra ularga har bir kartochkani o'z o'rniga qo'yib, gap tuzish va tushuntirib berish topshirig'i beriladi. Bunday topshiriqlar o'tirgan o'quvchilarga tasmachalarda bajartirilishi mumkin. Hech bo'lmaganda topshiriqning to'g'ri bajarilgan-bajarilmaganini so'rash lozim.

8. Gapni so'zlar qo'shib kengaytirish va uni chizmada ifodalash.

Bunda o'qituvchi gapdagi narsalarning belgilarini topishga undovchi savollar berib turadi.

(*Qanday? olmalar, qachon? terdi, qayerdan? terdi va shu kabi*). Bunday ish turi o'quvchining bilish faolligini oshiradi, darsga qiziqish uyg'otadi. Bu jarayonda o'quvchilar gapning yozilishi bilan bog'liq imloviy bilimlarni egallab boradilar, ularning gapni to'g'ri tuzish malakalari rivojlanadi, hikoyada (matnda) gaplar bir-biri bilan mazmunan bog'liq bo'lishini anglashga tayyorlab boradi. Yuqoridagi mashqlar savod o'rgatish darslari davomida izchil uyushtirib boriladi. Bu xil mashqlar o'quvchilar tomonidan yo'l qo'yiladigan tipik xatolarning (gap chegarasini farqlamaslik) oldini olish imkonini yaratadi. O'quvchilar gapning ohangiga, to'xtam lariga e'tibor berib, uni chegaralab olishga o'rganadilar. Tilda leksik (so'z), sintaktik (so'z birikmasi va gap) va bog'lanishli nutq saviyalari ajratiladi. Shu mazmunda so'z birikmasiga leksik saviyadan sintaktik saviyaga o'tish halqasi sifatida qaraladi.

So'z birikmasi leksik-grammatik birlik bo'lib, tugallangan fikr ifodalamaydi va bu bilan gapdan farqlanadi. So'z birikmasi nutqda gap ichida ishlatiladi. Bolalarga so'z

birikmasini o'rgatish fikr elementi ustida ishlash hisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda so'z birikmasi ustida ishlashda quyidagi mashq turlaridan foydalaniladi:

1. *Bosh so'zdan ergash so'zga so'roq berish, so'zlaming o'zaro bog'lanishini aniqlash.* Masalan, *Anvarjon yaxshi o'qiydi. Kim (o'qiydi)? — Anvarjon. (Anvarjon) nima qiladi? — o'qiydi. Qanday (o'qiydi)? — yaxshi. Yaxshi o'qiydi — so'z birikmasi.*

2. *Gapda so'zlarning o'zaro bog'lanishini chizmada ko'rsatish.* Bu o'quvchilarni asta-sekin murakkab qurilmalarni tuzishga o'rgatadi. Masalan:

Terimchi terdi, gullar ochildi, paxtani mashinada, har xil Gulzorda [6.181]

Terimchi paxtani mashinada terdi. Gulzorda har xil gullar ochildi.

3. *Matnda uchragan so'z birikmasining ma'nosini tushuntirish.*

4. *Matnda yoki faoliyat jarayonida uchragan yangi so'z bilan so'z birikmasi tuzish.* Mashqning bu turi so'zning ma'nosini chuqur tushunishga va undan o'z nutqida foydalanishga yordam beradi.

5. *So'z turkumlarini o'rganish bilan bog'liq holda so'z birikmasi tuzdirish.* Ot so'z turkumi o'tilganda, ot va sifat bilan (*jonajon Vatanim*), ot va boshqa ot bilan (*maktab bog'i*)\ fe'l o'tilganda, ot va fe'l bilan (*kinoga bordi, maktabda bo'ldi, uydan keldi, kitobni o'qidi*) so'z birikmalari tuzdiriladi. So'z birikmasi tuzishda yo'l qo'yilgan xato gap tuzishda ham xatoga olib keladi, shuning uchun uning oldini olish kerak.

Masalan: o'quvchi nutqida uchraydi: *maktabga bo'ldim maktabni bog'i*

To'g'risi: *maktabda bo'ldim maktabning bog'i* [7.245-248]

Bolalar ko'proq xatoga yo'l qo'yadigan so'z birikmalarini yig'ib borish xatoning oldini olishga qaratilgan mashqlar tuzishga imkon yaratadi. So'z birikmasi ustida ishlash grammatik, imloviy va boshqa mashqlarni to'g'ri bajarishga xizmat qiladi. Shuning uchun so'z birikmasi ustida o'rni bilan maqsadga muvofiq ishlab borish orqali gap va bog'lanishli nutq tuzishga oid nutqiy mashqlarga o'tish lozim.

Gap ustida ishlash o'quvchilarning nutqini o'stirishda muhim ahamiyatga ega. Gap ustida ishlashning asosiy vazifasi o'quvchilarni sintaktik jihatdan to'g'ri va aniq gap tuzib, tugallangan fikr bildirishga o'rgatish hisoblanadi. Gap (grammatik jihatdan o'zaro bog'langan, tugallangan mazmun va tugallangan intonatsiyaga ega bo'lgan) nutq birligi bo'lib, aloqa maqsadiga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun muhimi, birinchidan, gap nutq birligi ekanligidir.

Shunday ekan, nutqqa oid mashqlarga qo'yilgan talablar gap ustida ishlash mashqlariga ham taalluqlidir; ikkinchidan, gap – grammatik tomondan to'g'ri tuzilgan birlik, shunday ekan, gap ustida ishlash grammatika bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu jarayonda gap qurilishi, gapda so'zlarning bog'lanishi va gapning turlari ustida ishlash juda muhimdir; uchinchidan, gap nutq va til birligi bo'lib, tugallangan mazmunni bildiradi. Binobarin, gapning mazmuniy asosi, mazmun ottenkalari ustida ishlash va ularning gap tuzilishiga bog'liqligi ustida ishlash ham zarur; to'rtinchidan, gapning intonatsiyasi katta ahamiyatga ega, shuning uchun intonatsiya ustida ishlash, intonatsiyaning mazmun bilan bog'liqligini tushuntirish kerak.

Boshlang'ich sinflar dasturining "Grammatika, imlo va nutq o'stirish" bo'limida sintaksisdan beriladigan bilimlar aniq ko'rsatilgan. Bola boshlang'ich sinflarda beriladigan sintaktik materiallar hajmida faqat ona tili darslaridagina emas, balki boshqa darslarda va maktabdagi barcha mashg'ulotlar jarayonida gap tuzish, uni tahlil qilish va qayta tuzishga o'rgatib boriladi.

Gap ustida ishlashga oid mashqlar juda xilma-xil bo'lib, analiz va sintezning ustunligiga hamda o'quvchilarning mustaqillik darajasiga ko'ra tasnif qilinadi.

Analiz yoki sintezning ustunligiga nisbatan gap ustida ishlash mashqlari ikkiga bo'linadi:

- 1) *analitik mashqlar, ya'ni tuzilgan tayyor matndan olingan gapni tahlil qilish;*
- 2) *sintetik mashqlar, ya'ni mustaqil gap tuzishga qaratilgan mashqlar.*

Analitik mashqlar sintetik mashqlarga zamin hozirlaydi. ular parallel holda yoki sintetik mashqdan so'ng analitik mashq o'tkaziladi.

O'quvchilarning mustaqilligi va bilish jarayonining faollik darajasiga ko'ra gap ustida ishlash mashqlari uchga bo'linadi:

- 1) namuna asosidagi mashqlar;
- 2) konstruktiv mashqlar;
- 3) ijodiy mashqlar.

Namuna asosidagi mashq aniq, to'g'ri tuzilgan sintaktik qurilmalarni amaliy o'zlashtirishni, ularning ichki bog'lanishini, mazmunini tushunishni ko'zda tutadi. Bunday mashqlar ichida analitik mashqlarga, shuningdek, gapni kuzatish va eshitish, uni o'qishga muhim o'rin beriladi. Namuna asosidagi mashqlarga quyidagilar kiradi:

1. Gap ustida ishlashning eng oddiy, boshlang'ich, shu bilan birga, eng zaruriy shakli – namunani o'qish (yozish), intonatsiyasi, ifodaliligi ustida ishlash, gapning asosini va mazmunini tushuntirish, ba'zan esa gapni yodda saqlash, yodlash hisoblanadi.

Gapni o'qish va kuzatish nutq o'stirishga katta yordam beradi. Gap intonatsiyasi ustida ishlash gap m azmunini va bog'lanishini tu shunishga, namunaga qarab, uni o'zlashtirish va yodda saqlashga, gap qurilishini yaxshi tushunishga yordam beradi. Bu jarayonda nutqdan gapni intonatsiyaga qarab ajratishga, intonatsion tugallanganlikni ifodalashga, darak, so'roq va his-hayajon gaplarning intonatsiyasiga, uyushiq bo'lakli gaplar va bog'lovchisiz qo'shma gaplardagi sanash ohanggiga, bog'langan qo'shma gap intonatsiyasiga e'tibor berish kerak.

2. *Savol asosida gap tuzish.* Bunda berilgan savol javob (gap tuzish) uchun asos bo'ladi va "namuna" vazifasini bajaradi. Savolda uning asosiy mazinunigina emas, balki barcha so'zlari va sintaktik qurilishining chizmasi ham beriladi. *Masalan: Bolalar bog'da nima terdilar? (Bolalar bog'da olma terdilar).* Savollar asta-sekin murakkablashtirib boriladi: bolalar oldin so'roq so'z o'rniga bir so'z qo'shib gap tuzgan bo'lsalar, keyinroq o'z so'zlarini ko'proq qo'shishga majbur bo'ladilar: *Bolalar bog'da nima qildilar? (Bolalar bog'da olma terdilar. Bolalar bog'da olma terdilar va uni savatlarga soldilar).*

Yoki “*Bolalar qayerda bo‘ldilar? Ular nima qildilar?*” (Bolalar bog‘da bo‘ldilar. Ular olma terdilar va savatlarga soldilar/ *Sen tipratikan haqida nimalarni bilasan? Nega qushlar uyasini buzish mumkin emas?* kabi. Konstruktiv mashqlarga gap tuzish va uni qayta tuzishga qaratilgan mashqlar kiradi. Bunday mashqlar grammatik tushuncha va qoidaga asoslanadi. Konstruktiv mashqlarning turlari quyidagilar:

1. *Aralash berilgan so‘zlardan gap tuzish yoki tartibsiz berilgan gaplardan matn tuzish.* Bunda so‘zlar grammatik materialning o‘rganilishiga qarab uch variantda berilishi mumkin: a) so‘zlar tayyor ishlatiladigan shaklda beriladi: *meva, bog‘da, bog‘bonlar, terdilar (Bog‘bonlar bog‘da meva terdilar);* b) o‘rganilgan grammatik materialni hisobga olib, ayrim so‘zlar bosh shaklda, boshqalari tayyor shaklda beriladi. Masalan, “*Otlarda birlik va ko‘plik*” mavzusi o‘tilgach, *paxta, dalada, bola, terdilar* shaklida berilishi mumkin; v) barcha so‘zlar bosh shaklda beriladi: *koptok, hovli, bola, o‘ynamoq.*

2. *Nuqtalar qo‘yilmagan, bosh harf yozilmagan matndan gaplarning chegarasini ajratish.* Bu mashq bolalarni o‘z nutqlarida gaplarning chegarasini ajratishga, gapni to‘g‘ri o‘qish va yozishga o‘rgatadi.

3. *Berilgan sodda gapni so‘roqlar yordamida bosqichli yoyish mashqi.* Masalan: *Qushlar uchib keldi. Qayerdan uchib keldi? Qushlar sovuq mamlakatlardan uchib keldi. Qayerga uchib keldi? Qushlar sovuq mamlakatlardan o‘z uyalariga uchib keldi.*

4. *Berilgan sintaktik chizma asosida gap tuzish.*

Ega----- kesim f t II d. b. II d. b
t II d. b.

Chaqqon bolalar olma terdilar.

E ga-----kesim
/\ II d.b. II d.b.I t . b.

Ishchan bolalar chiroyiligullami zavqlanib terdilar. [8.66-70]

5. *Berilgan gapga o‘xshash, masalan, uyushiq egali yoki kesimli sodda yoyiq gap tuzish.* Bunda o‘quvchilarga *Quyosh yoritadi va isitadi* kabi gap beriladi, o‘quvchi esa “*Ravshan o‘qidi va ishladi*” kabi gap tuzadi.

6. *Ikki-uch sodda gapdan bitta uyushiq bo‘lakli sodda gap tuzish.* Masalan, “*Bahorda qaldirg‘ochlar issiq mamlakatlarga uchib ketadi*”. “*Bahorda laylaklar ham uchib ketadi*” gaplaridan uyushiq bo‘lakli “*Bahorda qaldirg‘ochlar va laylaklar issiq mamlakatlarga uchib ketadi*” gapi tuziladi. Ijodiy mashqlarda o‘quvchilar o‘zlari erkin ravishda gap tuzadilar. Boshlang‘ich sinflarda ijodiy mashqlarning quyidagi turlaridan foydalaniladi:

1. Gap tuzish uchun mavzu beriladi, o‘quvchilar shu mavzuga mos gap tuzadilar: “*Quyoshli kunda*”, “*Bizning uy*” yoki “*Quyvon va tipratikan*” kabi.

2. Narsa rasmi yoki sujetli rasm beriladi, o‘quvchilar rasm asosida bir yoki bir necha gap tuzadilar.

3. Ikki-uchta “*tayanch*” so‘z beriladi, o‘quvchilar shu so‘zlarni qatnashtirib gap tuzadilar. Tayanch so‘z sifatida bolalarning faol lug‘atiga aylantirish zarur bo‘lgan so‘zlar olinadi.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish kerakki, matn ustida ishlash mashg'ulotlarida, ayniqsa, bolalarning bo'g'in, so'z, so'z birikmasi va gap ustida ishlashda katta ahamiyat beriladi.

Badiiy matnlarni o'rgatish va ularning savodxonligini oshirish o'qituvchiga katta mahorat va mas'uliyat yuklaydi. Yozma nutqni shakllantirish faqat grammatik me'yorlarga rioya qilish emas, balki fikrlashni, o'zini erkin ifoda eta olishni va o'z fikrini mustaqil ravishda bayon etish madaniyatini rivojlantirishdir. Ona tili darslarida bu yo'nalishga alohida e'tibor qaratish orqali biz kelajakda bilimli, muloqotga layoqatli va ijodkor avlodni voyaga yetkazishga zamin yaratamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. // Barkamol avlod. O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: SHarq, 1997.
2. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. // Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: SHarq, 1997.
3. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi // O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining axborotnomasi, 7-maxsus son. T.:SHarq, 1999.
4. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha yangi tahrirdagi davlat ta'lim standarti // Boshl. ta'l. jurnali. Toshkent, 2005. №5. 5, 6, 8-9-betlar.
5. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha yangi tahrirdagi o'quv dasturi // Boshl. ta'l. jurnali. Toshkent, 2005. №5. 21- 33 – betlar.
6. N.B.Adizova, R.X.Jumayev, R.A.Qo'ldoshev, S.R.Ismatov ona tili o'qitish metodikasi Buxoro 2020 39-40-betlar
7. Karima Qosimova, Safo M atchonov, X olida G 'ulom ova, Sharofat Y o 'ldosheva, Sharoljon Sariyev Ona tili o'qitish metodikasi Toshkent «N O SIR» nashriyoti 2009 52-54-betlar
8. G.Fayzullayeva, N.Shavazova, C.Rahmonov. ONA TILI O'QITISH METODIKASI fanidan (3-kurslar uchun) O'QUV- USLUBIY MAJMUA Toshkent – 2019 181-bet

PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934